



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 5/2 2024







LAKUNAR BIRLIKLAR TEZAURUSI

Suyunov B.T.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Tayanch soʻzlar: leksika, termin, tezaurus, lakuna, etnografiya, kommunikatsiya, ekvivalent, tibbiy, fenomen, lingvistika, faktor.

Ключевые слова: лексика, термин, тезаурус, лакуна, этнография, коммуникация, эквивалент, медицинский, феномен, языкознание, фактор.

Key words: vocabulary, term, thesaurus, gap, ethnography, communication, equivalent, medical, phenomenon, linguistics, factor.

Резюме:

Ushbu maqolada oʻzbek tili lakunar birliklar tezaurusi va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari oʻz aksini topgan. Unda mavzuga oid bir qator xorijiy adabiyotlar, ilmiy-nazariy manbalar tahlilga tortilgan. Xususan, bir tilda mavjud boʻlgan leksik birlik yoki soʻz boshqa tilda mavjud boʻlmasligi, shuningdek ayni soʻzga ekvivalent birlik yoʻqligi sababli oʻzga tilda shu soʻzni ifodalash imkoniyati yoʻqligi, bunday birliklar, odatda izohlash yoki tasvirlash orqali yoki noekvivalent soʻzlar orqali ifodalanishi – lakuna tushunchasi ostida tadqiq qilingan.

Резюме:

В данной статье рассматривается тезаурус лакунарных единиц узбекского языка и их применение на практике. Анализируется ряд зарубежной литературы, научных и теоретических источников по данной теме. В частности, отсутствие лексической единицы или слова одного языка в другом языке, а также невозможность выразит это слово в другом языке из-за отсутствия эквивалентной этому же слову единицы, такие единицы обычно выражаются толкованием или описанием, или неэквивалентными словами.

Summary:

This article discusses the thesaurus of lacunar units in the Uzbek language and their application in practice. A number of foreign literature, scientific and theoretical sources on this topic are analyzed. In particular, the absence of a lexical unit or word of one language in another language, as well as the impossibility of expressing this word in another language due to the lack of a unit equivalent to the same word, such units are usually expressed by interpretation or description, or by non-equivalent words.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-oktyabrda
“Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini
takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6884-son Farmonida davlat
tilini yanada rivojlantirish, uning xalqaro nufuzini oshirish, maishiy xizmat,



harbiy, tibbiyot va boshqa sohalar da keng qo'llanilayotgan xorijiy so'z va terminlarning o'zbekcha muqobillari va ularning lug'atini yaratish, o'zbek tiliga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash singari dolzarb masalalar ko'zda tutilgan.

Ularning sirasiga mamlakatimiz ta'lim tizimida davlat tili sifatida o'zbek tilining qo'llanilish doirasini yanada kengaytirish, ona tilimizni xalqaro miqyosda muomala va aralashuvning faol vositasiga aylantirish, o'zbek tiliga yetishib kelayotgan yosh farzandlarimizning mehr-muhabbati va qiziqishini oshirish, ayni paytda, tildagi ilmiy termin va tushunchalarni to'g'ri tizimlashtirish hamda ularni amaliyotga keng tatbiq etish kabi muhim vazifalarni ham kiritish mumkin.

Dunyodagi tillar, madaniyatlar o'zaro doimiy aloqada va hamkorlikda bo'lib, bu jarayon ularning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, turli til va madaniyatlar orasida o'zaro nomutanosibliklar, farqli jihatlar ham vujudga keladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida bunday o'zaro farqli jihatlarni ko'rsatish uchun terminologik vositalar turfa xil. Qiyoslanayotgan tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqni asoslash uchun ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilayotgan terminlardan biri – bu lakuna terminidir.

Lakuna bugungi kunda qiyoslanayotgan tillar o'rtasidagi o'zaro nomutanosiblik, tizimli farqlashni belgilashda faol ishlatilmoqda.

Til hodisalarini chuqur va atroflicha o'rganish XX asrlardan boshlangan bo'lsa-da, hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikda lakuna terminining talqini ilmiy tadqiqotlarni sintez qilish yo'liga o'tdi. Va bu tasodif emas, chunki til muomala vositasi sifatida ijtimoiy hayot va madaniyat bilan uzviy bog'liq. Tilning istalgan sohasi madaniy, etnografik, ijtimoiy, psixologik faktorlarsiz mavjud bo'la olmaydi.

Lakuna – LACUNA – lotincha 1. Ichida suyuqlik bo'lgan chuqurcha, botiqlik, bo'shliq joy. 2. Biror narsani o'tkazuvchi joy .

Lakunar birliklar biror bir tilda boshqa tildagi tushunchaning so'z ko'rinishidagi ifodasi mavjud bo'lmasligi natijasida yuzaga keladi. Lakunar birliklar muayyan til yoki madaniyatda mavjud bo'lgan tushunchani nomlaydi, aslida bu tushuncha boshqa til yoki madaniyatda ham mavjud bo'lib, biroq mazkur tushuncha leksik birlik sifatida o'sha madaniyatning tilida voqelanmaydi. Lakuna tushunchasi ilmiy termin sifatida o'tgan asr, ya'ni XX asrning 70-yillaridan boshlab qo'llanila boshlaganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan.



Rus tilshunosi I.A.Sternin bu haqda shunday deydi: “Har bir tilda ko‘p sonli til ichidagi lakunar birliklar mavjud, ya’ni garchi ma’nosiga ko‘ra yaqin leksemalar mavjud bo‘lsa-da, tilning leksik tizimida bo‘sh, to‘ldirilmagan joylar uchraydi” .

Lakuna terminini ishlatmagan bo‘lsa-da, biroq ushbu hodisaga birinchilardan bo‘lib asos solgan alloma, o‘zbek tili va adabiyotining asoschilaridan biri, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hisoblanadi. U o‘zining “Muhokamat-ul lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asarida turkiy til bilan fors-tojik tilini o‘zaro qiyosiy tahlil qilib, turkiy tildagi ayrim so‘z va tushunchalarning fors-tojik tilida mavjud emasligini, ya’ni madaniy bo‘shliq haqidagi ilk g‘oyalarni ilgari surdi.

Masalan, “*Va xo‘blarning ko‘z va qoshlari orasinki, qabog‘ derlar. Forsiyda bu uzvning oti yo‘qtur*”, “*Va husn ta’rifida ulug‘roq xolg‘akim, turklar meng ot qo‘yupturlar; alar ot qo‘ymaydurlar*” (A.Navoiy. MAT. 16-tom, 16-17-betlar).

Zamonaviy fanda ushbu terminning izohlari har xil. Lakunani an’anaviy tushunish quyidagicha:

Lakuna – biror bir tilda ekvivalent tushunchaning mavjud emasligi natijasida yuzaga keladigan “oq dog‘lar”, “bo‘shliq”dir . Bunday yondashuv faqat tor ma’noda, tilning leksik qatlami doirasida tushuniladi. Masalan, tilshunos olim L.S.Barxudarov ekvivalentsiz leksikani tasnif qilar ekan, bir guruh “tasodifiy lakunalar”ni ajratadi va tillarning biridagi bu leksik birlik qaysidir sabab bilan boshqa tilda so‘z shaklida yoki turg‘un birikma shaklida mavjud bo‘lmaydi.

V.A.Muravyov tildagi lakunalarni asliy va nisbiy lakunalarga ajratish bilan birga, ularni stilistik, etnografik va assotsiativ lakunalarga ham ajratadi. Stilistik lakunalar ikki til o‘rtasida biror sabab bilan stilistik planda o‘zaro mos kelmagan holatlarda yuzaga keladi.

Yuqorida ta’kidlangan *asliy lakuna* deganda, bir til yoki madaniyatda mavjud bo‘lib, boshqa til va madaniyatda mutlaqo uchramaydigan birlik (element) tushuniladi. *Nisbiy lakuna* deganda, qiyoslanayotgan til va madaniyatlarda o‘zaro qisman mos kelmaydigan tushuncha va hodisalar anglashiladi.

Ta’kidlash joizki, ko‘pgina mutaxassislar tillararo va madaniyatlararo turli xil nomutanosibliklarni ifodalashda lakuna terminidan foydalanmaydilar. Ularning o‘rniga biror tilda yo‘q bo‘lgan leksik birlikning o‘rniga boshqa tildagi mavjud tushunchadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishadi. Bunday paytlarda voqea-hodisa unga ekvivalent termin yo‘qligi sababli yuqoridagicha holat takrorlanadi. Bular esa umumiste’moldagi lakuna terminini mazmunan yanada murakkablashtiradi.



Shulardan kelib chiqib, lakuna terminiga quyidagicha aniqlik kiritish mumkin:

Lakuna – qiyoslanayotgan tillar yoki madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro bir-biriga teng (mos) kelmasik, har xillik bo‘lib, ayni voqea-hodisa yoki tushunchaning biror tilda yoki o‘zga tilda mavjud emasligi yoxud o‘ziga xos ifodalanishidir (Eynullayeva Y.A).

Lakuna – har xil til va madaniyat birliklari vakillarining o‘zaro tushunishlari qiyin bo‘lgan o‘ziga xos tushunchalardir. Umuman, lakuna tushunchasini til birliklarining barcha sohasiga tegishli fenomen, deb qarash maqsadga muvofiq. Lakuna terminiga tilshunoslikda o‘ziga xos ko‘p qirrali tushuncha deb qaraladi, lekin uning ichki shaffofligi o‘z-o‘zidan til ilmida aniqlik va bir ma’nolilikni ta’minlaydi.

Shunday qilib, *lakuna* termini keng ma’noda qiyoslanayotgan til va unumadaniyat vakillarining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini o‘zida mujassam etsa, tor ma’noda bir til yoki tillar doirasida mavjud bo‘lmagan so‘z yoki leksik birliklarni o‘zida qamrab oladi. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, lakuna terminining fanda va falsafada umumnazariy qoidasi hali mavjud emas. Ayniqsa, falsafa tarixida uning turlicha fenomenlari talqin va tadqiq qilingan.

Adabiyotlar:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – Москва: 1975.
2. Быкова Г.В. Феноменология лексической лакунарности русского языка. – Благовещенск, 2001
3. Махонина А.А. К вопросу о классификации межъязыковых лакун // Язык и национальное сознание. Вып. 4. – Воронеж, 2002
4. Стернин И.А. Концепты и лакуны. Лингвистические основы межкультурной коммуникации. // – Нижний Новгород: 2003
5. Suyunov B.T. Termin va boshqa til birliklari masalasi. O‘zMU xabarlar. 2022, № 1/11.
6. Тўрақулов Ё.Х., Усмонхўжаев А. ва бошқалар. Русча-лотинча-ўзбекча тиббий терминлар изоҳли луғати. – Тошкент: 1996
7. Эйнуллаева Е.А. Лакуны в структуре языковой личности и их заполнение в межкультурной коммуникации (на примере английского и русского языков). // Автореф. дисс. на соискание уч.степени канд... фил... наук.– Москва: 2000